

**KONFERENSIYALAR** COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**APREL, 2026**

**ISSN 3093-8791**

**ELEKTRON NASHR:**

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

**TOSHKENT-2026**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil).– 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 24-aprel

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

#### **Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

## MUNDARIJA

### FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

*Valijonova Shaxzoda*

n-TARTIBLI CHIZIQLI O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI BIR JINSLI BO'LMAGAN  
DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI ANIQMAS KOEFFITSIYENTLAR USULIDA YECHISH ..... 6-9

*Mullaboev Omonboy, Bo'riyev Yusufjon*

KO'P TILLI PARALLEL KORPUS ARXITEKTURASI VA GAPLARNI AVTOMATIK  
MOSLASHTIRISH ALGORITMI ..... 10-15

*Soyipov Jasurali, G'aniyeva Maxfuza*

FIZIKADAN MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA  
TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PISA  
TADQIQOTLARINING AHAMIYATI ..... 16-19

### IQTISODIYOT FANLARI

*G'ofurov Rashidjon, Nishonov Akmalxon*

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI TOMONIDAN TO'LANADIGAN SOLIQLAR VA  
MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI ..... 20-24

### FALSAFA FANLARI

*Парниева Айгуль*

ФИЛОСОФИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ КАК ПРОСТРАНСТВО  
СМОЛООБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ХХІ ВЕКА И  
СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ ..... 25-30

### FILOLOGIYA FANLARI

*Tursunova Farangiz*

TURKIY TILLARDA YUZ IFODASI VA ULARNING O'XSHASHLIK VA FARQLI  
JIHATLARI ..... 31-33

*Jo'rayeva Nozimaxon*

O'ZBEK TILIDAGI OLMOSHLARNING KO'P MA'NOLILIGI: SEMANTIK  
KENGLIK VA KONTEKSTUAL O'ZGARUVCHANLIK ..... 34-38

*Inatova Jasmina*

ARAB YOZUVIDAN LOTINGA O'TISH JARAYONI VA MUAMMOLARI ..... 39-42

*Mavjudboyeva Mardona*

DOSTONLARDA TUSH MOTIVINING O'RNI ..... 43-47

*Tilaboyeva Musobar, Xusniddinxonova Mahzuma*

GEORGE ORWELL ASARLARIDA TOTALITAR JAMIYAT TANQIDI ZAMONAVIY  
KONTEKSTDA ..... 48-50

*Xamidova Go'zal*

ZADIE SMITH ASARLARIDA ZAMONAVIY JAMIYAT TASVIRI ..... 51-53

*Adasheva Durdona*

FEMINIZM ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA QANDAY AKS ETADI ..... 54-57

<i>Erkinov Ma'murjon</i> TARIXIY ROMAN: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA) .....	58-62
<i>Zokirjonova Madina</i> COLLOQUIAL LANGUAGE IN "DOWN AND OUT IN PARIS AND LONDON" A REFLECTION OF CLASS AND IDENTITY .....	63-65
<i>Azimova Anisa</i> KINETIC SIGNS AND EMOTIONAL CONCEPTUALIZATION IN UZBEK AND ENGLISH DISCOURSE .....	66-71
<i>Isanova Feruza</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINLARINING YASALISH USULLARI .....	72-77
<b>YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Bakhromova Laylo</i> IMPROVING INTERNATIONAL ANTI-MONEY LAUNDERING STANDARDS: PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPLEMENTATION AND PROPOSALS FOR ENHANCING EFFECTIVENESS .....	78-86
<i>Abdullayeva Sabohat</i> KRIPTOAKIVLAR ANONIMLIK XUSUSIYATINING HUQUQIY TABIATI: NAZARIY VA DOKTRINALI YONDASHUVLAR .....	87-90
<i>Muhammadjonova Gulasal</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI .....	91-93
<b>PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Omonova Muxlisa</i> DEONTOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI .....	94-96
<i>Tadjibayeva Gavxaroy, Nazarov Abdug'affor</i> EKOLOGIK MADANIYAT ASOSIDA SALOMATLIKNI SAQLASHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR METODIKASI .....	97-100
<i>Abdulborieva Mexruza</i> TIZIMLI TAHLIL VA STEM YONDASHUVLARI ASOSIDA IQTISODIY YO'NALISH TALABALARI ANALITIK HAMDA KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI: AMALIY-METODIK MEXANIZMLAR .....	101-106
<i>G`ulomova Moxinur</i> BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI DARSLARIDA NOODATIY TOPSHIRIQLAR .....	107-110
<i>Boboyeva Iroda, Olimjanova Jasmina</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	111-118
<i>Ismoilov Ravshan</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	119-123
<i>Abduvaliyeva Farida</i> MULTIMEDIA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK JIHATLARI .....	124-127

<i>Эркинова Солохидинова Ранохон, Абдуазизова Вероника</i> МОТИВАЦИОННО ЦЕННОСТНЫЙ КОМПОНЕНТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ .....	128-130
<i>Абдулбориева Мехруза</i> РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ВУЗЕ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: МЕТОДИКА И РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТА .....	131-134
<i>Jalolova Shahnoza</i> THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF DISTANCE LEARNING AND FOREIGN LANGUAGE TEACHING .....	135-139
<i>Usmanova Nodira</i> USE OF NEW INNOVATIVE METHODS IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS .....	140-143
<i>Sodiqova Sevara</i> LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE ASPECTS OF ENGLISH SPEAKING DEVELOPMENT THROUGH PROJECT-BASED LEARNING .....	144-149

## PEDAGOGIKA FANLARI

### DEONTOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI

**Omonova Muxlisa Dustnazar qizi**

Al Fraganus universiteti dotsent v.b(PhD)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada deontologiya tushunchasining mazmuni, uning falsafiy va pedagogik asoslari hamda ta'lim tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Deontologiya kasbiy burch, axloqiy me'yorlar va mas'uliyat tushunchalariga asoslangan holda shaxsning kasbiy faoliyatidagi xulq-atvorini tartibga soluvchi muhim nazariy yo'nalish sifatida talqin etiladi. Pedagogik faoliyatda deontologiya o'qituvchining kasbiy etikasi, insonparvarlik qadriyatlari, o'quvchilarga nisbatan hurmat va adolatli munosabatini shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Maqolada deontologiyaning pedagogik mohiyati, uning empatiya, kommunikativ madaniyat va kasbiy mas'uliyat bilan uzviy bog'liqligi ochib berilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda deontologik madaniyatni shakllantirishning metodik asoslari hamda ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari deontologik yondashuv pedagog shaxsining kasbiy va axloqiy kamolotini ta'minlovchi muhim pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar.** deontologiya, pedagogik deontologiya, kasbiy burch, pedagogik etika, axloqiy me'yorlar, pedagog shaxsi, empatiya, kasbiy mas'uliyat, insonparvarlik.

### THE CONCEPT OF DEONTOLOGY AND ITS PEDAGOGICAL ESSENCE

**Omonova Mukhlisa Dustnazar qizi**

Associate Professor, Al Fraganus University (PhD)

**Annotation.** This article examines the concept of deontology, its philosophical and pedagogical foundations, and its significance in the education system. Deontology is interpreted as a theoretical field based on the principles of professional duty, moral norms, and responsibility, regulating human behavior in professional activity. In the pedagogical context, deontology plays a crucial role in shaping teachers' professional ethics, humanistic values, and respectful and fair attitudes toward learners. The article reveals the pedagogical essence of deontology and its interrelation with empathy, communicative culture, and professional responsibility. In addition, the methodological foundations for developing deontological culture among future teachers and the possibilities of its implementation in the educational process are substantiated. The findings indicate that the deontological approach serves as an important pedagogical tool for the development of teachers' professional and moral qualities.

**Keywords:** deontology, pedagogical deontology, professional duty, pedagogical ethics, moral norms, teacher personality, empathy, professional responsibility, humanism.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i8/n20>

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar nafaqat bilimli, balki yuksak axloqiy fazilatlariga ega, ijtimoiy mas'uliyatni chuqur his etadigan pedagog kadrlarni tayyorlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi, ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, kasbiy etik me'yorlarga amal qilishi bilan ham ajralib turishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik faoliyatda deontologiya tushunchasi muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Deontologiya — bu kasbiy burch, axloqiy me'yorlar va mas'uliyat tamoyillariga asoslangan ilmiy yo'nalish bo'lib, u shaxsning professional faoliyatdagi xulq-atvorini tartibga soladi. Pedagogik sohada deontologiya o'qituvchining o'z kasbiga nisbatan munosabati,

o'quvchilarga hurmat, adolatli yondashuv, insonparvarlik va pedagogik odob kabi muhim fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bugungi ta'lim muhitida o'qituvchining nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, psixolog va ijtimoiy yetakchi sifatidagi roli ortib borayotganligi deontologik qadriyatlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida deontologik bilim va ko'nikmalar ko'pincha yetarli darajada tizimli shakllantirilmayapti. Bu esa kelajakdagi o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida axloqiy muammolarni hal etish, pedagogik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va o'quvchilar bilan samarali munosabat o'rnatishda muayyan qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Demak, pedagogik deontologiyaning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va uni ta'lim jarayoniga samarali joriy etish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Mazkur maqolaning maqsadi deontologiya tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish, uning pedagogik faoliyatdagi o'rnini asoslash hamda pedagogik deontologiyaning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Deontologiya tushunchasi ilmiy muomalaga dastlab falsafiy kategoriya sifatida kirib kelgan bo'lib, u insonning burch va majburiyatlariga asoslangan axloqiy faoliyatini o'rganadi. Ushbu atama Jeremy Bentham tomonidan ilmiy adabiyotlarga kiritilgan bo'lib, u deontologiyani "zaruriyat va burch haqidagi ta'limot" sifatida talqin etadi. Keyinchalik bu tushuncha turli sohalarda, jumladan, tibbiyot, huquq va pedagogika kabi kasbiy faoliyat turlarida keng qo'llanila boshladi.

Falsafiy jihatdan deontologiyaning asoslari Immanuel Kantning axloqiy ta'limotiga borib taqaladi. Kantning kategorik imperativ nazariyasiga ko'ra, inson har qanday vaziyatda ham umumiy axloqiy qonunlarga amal qilishi, ya'ni burchni shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yishi lozim. Bu g'oya pedagogik faoliyat uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchining harakatlari axloqiy me'yorlar va kasbiy burch asosida tashkil etilishi zarurligini anglatadi.

Pedagogik deontologiya esa umumiy deontologiyaning muayyan sohaga moslashgan shakli bo'lib, o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi axloqiy me'yorlar, majburiyatlar va mas'uliyat tizimini o'rganadi. Bu borada V. A. Sukhomlinsky o'qituvchining shaxsiy namunasini, insonparvarlikni va bolaga mehr bilan munosabatda bo'lishni pedagogik faoliyatning asosiy mezonlari sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, haqiqiy pedagog o'z faoliyatida axloqiy qadriyatlarga tayanib, o'quvchining shaxsini hurmat qilgan holda ishlashi lozim.

Psixologik nuqtayi nazardan deontologik yondashuv shaxsning ichki motivlari, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvori bilan uzviy bog'liqdir. I. A. Zimnyaya pedagogning kasbiy tayyorgarligida axloqiy-psixologik komponentlar alohida o'rin tutishini ta'kidlab, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishda shaxsiy fazilatlar muhim rol o'ynashini asoslaydi. Bu esa deontologik yondashuvning faqat tashqi qoidalar tizimi emas, balki ichki e'tiqod va ongli xulq-atvorni shakllantirishga qaratilganligini ko'rsatadi.

Zamonaviy pedagogik nazariyalarda deontologiya empatiya, kommunikativ madaniyat va kasbiy etika bilan integratsiyalashgan holda talqin qilinadi. Nel Noddings tomonidan ishlab chiqilgan "g'amxo'rlik etikasi" konsepsiyasiga ko'ra, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar mehr, e'tibor va tushunishga asoslanishi lozim. Bu yondashuv pedagogik deontologiyaning zamonaviy talqinini boyitib, unda empatik munosabatlarning muhim o'rin egallashini ta'kidlaydi.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham deontologik yondashuvning ahamiyati alohida e'tirof etiladi. Xususan, R. Ishmuhamedov ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash orqali talabalarda axloqiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini asoslab beradi. Bu esa deontologiyaning pedagogik faoliyatda faqat nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shunday qilib, deontologiyaning nazariy asoslari falsafiy (axloqiy burch va me'yorlar), pedagogik (kasbiy etika va tarbiyaviy ta'sir) hamda psixologik (shaxsiy motivatsiya va empatiya) komponentlarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllangan. Mazkur yondashuv pedagog shaxsining kasbiy va axloqiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy asos sifatida namoyon bo'ladi.

### **Xulosa**

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatdiki, deontologiya tushunchasi pedagogik faoliyatning muhim metodologik asoslaridan biri bo'lib, u o'qituvchining kasbiy burchi, axloqiy mas'uliyati va insonparvarlik qadriyatlariga asoslangan faoliyatini tartibga soladi. Deontologiya pedagogik jarayonda o'qituvchining nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi va shaxs shakllantiruvchi sifatidagi rolini belgilab beradi hamda uning kasbiy xulq-atvorini axloqiy me'yorlar asosida boshqaradi.

Tadqiqot natijalari deontologiyaning falsafiy, pedagogik va psixologik jihatlari o'zaro uzviy bog'liqlikda namoyon bo'lishini tasdiqladi. Falsafiy nuqtayi nazardan u burch va majburiyat kategoriyalariga tayanadi, pedagogik jihatdan esa o'qituvchining kasbiy etikasi va insonparvarlik tamoyillarini shakllantiradi, psixologik jihatdan esa shaxsning ichki motivatsiyasi, empatik qobiliyati va kommunikativ madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Bu esa deontologiyani kompleks va ko'p komponentli pedagogik hodisa sifatida baholash imkonini beradi.

Shuningdek, deontologik yondashuv bo'lajak pedagoglarda empatiya, hurmat, adolat, mas'uliyat va sabr-toqat kabi muhim kasbiy sifatlarni shakllantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim muhitida pedagog va o'quvchi o'rtasidagi insonparvar va ishonchli munosabatlarni ta'minlashda deontologik qadriyatlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Umuman olganda, pedagogik deontologiya bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, ularning shaxsiy va axloqiy kamolotini ta'minlashda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida deontologik yondashuvni tizimli ravishda joriy etish, kasbiy etika va empatiyani integratsiyalashgan holda o'qitish hamda reflektiv faoliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Bentham J. Deontology; or, The Science of Morality. – London: Longman, Rees, Orme, Brown, Green, and Longman, 1834. – 312 p.
2. Kant I. Osnovy metafiziki npravstvennosti. – M.: Mysl, 1999. – 256 s.
3. Sukhomlinsky V. A. Serdtse otdayu detyam. – Kiev: Rad. shkola, 1977. – 382 s.
4. Zimnyaya I. A. Pedagogicheskaya psixologiya. – M.: Logos, 2004. – 384 s.
5. Noddings N. Caring: A Relational Approach to Ethics and Moral Education. – Berkeley: University of California Press, 1984. – 216 p.

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

**MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

**Mas'ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil). – 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 24-aprel.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Science problems team, 2026-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.